

## JONAS JONASSONNING “DERAZADAN CHIQIB G‘OYIB BO‘LGAN YUZ YOSHLI CHOL” ASARIDAGI ANTROPONIMLARNI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI

**Zilolaxon Mansurbek qizi Mahmudova**

Termiz davlat universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi talabasi

Email: [menmi2805@gmail.com](mailto:menmi2805@gmail.com)

**Shohidabonu Xabibullo qizi Qahramonova**

Termiz davlat universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi talabasi

Email: [qahramonovashohida703@gmail.com](mailto:qahramonovashohida703@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Jonas Jonassonning qalamiga mansub “Derazadan tashqariga chiqib, g‘oyib bo‘lgan yuz yoshli chol” asari tarkibidagi antroponimlarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan va lingvistik nuqtai nazardan kitobxon uni anglashi uchun ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilingan. Asarda obyekt sifatida tanlangan ismlar reallikdagi shaxslar bo‘lganligi tufayli ularning kelib chiqishi o‘rganildi.

**Kalit so‘zlari:** antroponimlar, toponim, madaniy terminlar, sintaktik tahlil, tarjima usullari.

### THE PROBLEM OF TRANSLATING ANTHROPONYMS FROM ENGLISH TO UZBEK IN JONAS JONASSON “A HUNDRED-YEAR-OLD MAN WHO WENT OUT OF THE WINDOW AND DISAPPEARED”

#### ABSTRACT

This article is a translation of anthroponyms from English into Uzbek by Jonas Jonasson “A Hundred-Year-Old Man Who Went Out Of The Window And Disappeared” and takes into account the factors influencing the reader’s understanding of their essence from a linguistic point of view analyzed. The origin of the names chosen as objects in the play was studied because they were real-life cases.

**Keywords:** anthroponyms, toponyms, cultural terms, syntactic analysis, translation methods.

## ПРОБЛЕМА ПЕРЕВОДА АНТРОПОНИМОВ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКИСТАНСКИЙ У ДОНАСА ДЖОНАССОНА “СТОЛЕТНИЙ СТАРИК, КОТОРЫЙ ВЫШЕЛ ИЗ ОКНА И ИСЧЕЗ”

### АННОТАЦИЯ

Данная статья представляет собой перевод антропонимов с английского языка на узбекский Джонаса Джонассона “Столетний старик, который вышел из окна и исчез” и учитывает факторы, влияющие на понимае читателем их сущности с лингвистической точки зрения проанализировано. Имена, выбранными в качестве объектов, изучались потому, что они были реальными событиями. В результате в статье предлагаются шаблоны для анализа переводчиком этимологически, лексикологически, семантически и фонетически перед переводом на узбекский язык.

**Ключивые слова:** антропонимы, топонимы, культурологические термины, синтаксический анализ, способы перевода.

### KIRISH

Jonas Jonasson 1961-yilda 6-iyulda tug'ildi. Otasi tez yordam haydovchisi, onasi hamshira. Ular Shvetsariyaning janubida yashashgan. Gyoteborg universitetida shved va ispan tilini o'rgangandan keyin, U Vaxjo gazetasi Smalandsposten va Shvetsiyaning kechki “Expressen” da jurnalist bo'lib 1994- yilgacha ishladi. 1996-yilda u OTV media kompaniyasiga asos soldi va 100 nafar xodim bilan ishlay boshladi. 2003-yilda ikkita katta operatsiyadan keyin ortiqcha ishlashni to'xtatdi. Keyin u o'z kompaniyasini sotdi. 2007-yilda u o'zining “Derazadan tashqariga chiqib, g'oyib bo'lgan yuz yoshli odam” nomli birinchi kitobini tugatdi. 2009-yilda Shvetsiyada nashrdan chiqdi. 2010-yildan beri Jonasson o'g'li bilan Shvetsiyaning Gotland orolida yashaydi. Jonassonning birinchi romani butun dunyo bo'ylab muvaffaqiyatga erishdi. Uydan qochgan yuz yoshlik odam hayoti ajoyib sarguzashtlarga boy hikoya, u 35 ta tilga tarjima qilingan. Germaniyada 1 milliondan ortiq va dunyo bo'ylab 2.5 milliondan ortiq nusxasi sotilgan.

### Mukofotlari:

- Shvetsiya Kitob Sotuvchilar Mukofoti (2010)
- Mayersche Buchhandlungdan nemis Pioner mukofoti (2011)
- Daniya Audikitobi mukofoti (2011)
- Pri Qochoqlari (2012)

## ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur maqola uchun tadqiqot davomida tarjima qiyosiy adabiyot, qarama qarshi tavsifli tarjima va lingvistik atamalarning izohli tahlili, adabiyotning stilistik tahlili ko‘rib, o‘rganilib chiqildi. Ushbu tadqiqot uchun, “ Tarjimashunoslik terminlarining ko‘p tilli lug‘at-ma‘lumotnomasi ” qo‘llanmasidan foydalaniladi.

O‘ZBEK TILI - oltoy tillari oilasining turkiy tillari turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofi davlat tili hisoblanadi. Davlat tili haqidagi qonun 1989-yil 21- oktyabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.

**ANTROPONIM** – Antroponimiya (shuningdek, antroponimika yoki antroponomastika, qadimgi yunon tilidan olingan anthrdapos / ‘inson’ va onoma / ‘ism’) ning o‘rganilishi antroponimlar, insonning shaxsiy va jamoaviy nomlari, antroponimika-onomastikaning bir bo‘limi. Antroponimika sohasidagi tadqiqotchilarni antroponimistlar deb atashadi.

**INGLIZ TILI** – hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til, ingliz xalqining tili, Avstraliya, AQSH, Birlashgan Qirollik, Hindiston, Irlandiya, JAR, Kanada, Liberiya, Malta va Yangi Zelandiyaning rasmiy tili. Ingliz tili dunyodagi eng ko‘p ishlatiladigan tillar ichida 3-o‘rinda turadi (Ispan hamda Mandarin Xitoycha tillardan keyin). Yevropa Ittifoqining asosiy tili.

## NATIJALAR

“Derazadan tashqariga chiqib, g‘oyib bo‘lgan yuz yoshli chol” asari boshlanishida Alan ismli 100 yoshli odam o‘zining tug‘ilgan kunida Qariyalar uyining derazasidan qochib chiqib ketadi. Sayohati davomida katta chamadonni o‘g‘irlyadi va avtobusda uzoqlarga ketadi. Bu asar sarguzashtli va qiziqarli voqealarga boy bo‘lib, o‘qishingiz uchun tavsiya etiladi. Asar qahramonlarining ismlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida fonetik hodisaga uchragan.

	<b>INGLIZ TILI</b>	<b>O‘ZBEK TILI</b>
1	Harry S. Truman	Garri S. Truman
2	Lyndon Johnson	Lindon Jonson
3	Franco	Franko
4	Richard Nixon	Richard Nikson
5	Albert Einstein	Albert Eynshteyn
6	Alice	Elis

Asarda keltirilgan ismlar fonetik transformatsiya va transliteratsiya usulidan foydalanib tarjima qilindi. Asardagi *Alice* ismini transliteratsiya usuli orqali *Elis* deb

tarjima qilindi.. Tajima qilish jarayonida tovush tushishi, ortirilishi va o'zgarishi kabi harakatlar amalga oshirildi. *Harry* ismidagi "H" > "G" ga almashdi va *Garri* ga o'zgardi. *Franco* ismidagi "c" > "k" ga o'zgardi va *Franko* bo'ldi. *Nixon* "x" > "ks" ga aylandi va *Nikson* ga o'zgardi.

## MUHOKAMA

Bu asardagi qahramonlarning reallikda bo'lganligi va hayotda kim bo'lganligi aytib o'tilgan. Asarda bu shaxslarning 2-jahon urushi paytida qilgan ishlari yoritib berilgan. Siz bu shaxslar bilan tanishishingiz mumkin.

Alan Karlsson – to'liq ismi Alan Emmanuel Karlsson. Taxallusi - Alan, Kelib chiqishi – Derazadan chiqib g'oyib bo'lgan yuz yoshli odam. 1905-tug'ilgan. U bu asarda boshqahramon bo'lib, asarda keksa yoshdagi inson obrazida tasvirlangan.

Garri S. Truman. (1884-1972) – AQSHning 33-prezidenti 1945-yildan 1953-yilgacha xizmat qilgan. Demokratik partiyaning umrbod a'zosi, u ilgari 1935-yildan 1945-yilgacha AQSHning Missuri shtatida senator bo'lib xizmat qilgan. Bu inson asarda Alanning do'sti bo'lib, atom bombasini yasashga yordam beradi.

Fransisko Franko Bahamonde - (1892-1975) ispaniya fuqarolar urushi davrida ikkinchi Ispaniya Respublikasini ag'darishda millatchi kuchlarni boshqargan va keyinchilik Ispaniya ustidan 1939- yildan 1975- yilgacha diktator sifatida hukmronlik qilgan ispan generali edi. Allan yoshligida dinamit fabrikasida ishlagan, General Franko Alanni Ispaniyadagi fuqarolar urushidan qutqarib qoladi.

Iosif Vissarionovich Stalin (1878-1953) – 1922dan 1953-yil vafotigacha sovet Ittifoqini boshqargan Gruziya inqilobiy va Sovet inqilobiy rahbari. U hokimiyatni sovet ittifoqi Kommunistik partiyasining Bosh kotibi (1922-1952) va Sovet Ittifoqi Vazirlar Kengashining raisi (1941-1953) sifatida egallagan.

Albert Eynshteyn (1879-1955) nisbiylik nazariyasini ishlab chiqish bilan mashhur, ammo u kvant mexanikasi nazariyasini rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. "Dunyodagi eng mashhur tenglama" asari fan falsafasiga ta'siri bilan tanilgan.

Lindon Jonson – (1908-1973) AQSHning 36-prezidenti sifatida(1963-1969) xizmat qilgan amerikalik siyosatchi. U ilgari prezidenti Jon F. Kennedi davrida 37-vitse-prezident bo'lib(1961-1963) ishlagan. Texaslik demokrat Jonson AQSH vakili, AQSH senatori va Senatning ko'pchilik rahbari sifatida xizmat qilgan.

Richard Nikson (1913-1994) 1969-yildan 1974-yilgacha AQSHning 37-prezidenti bo'ldi. U oldin Kaliforniyada Respublikachilar partiyasining vakili va senator a'zosi bo'lib ishlagan. 1953-yildan 1961-yilgacha 36-vitse prezident bo'lib ishlagan.

Sintaktik transformatsiya usuli

➤ You might think he could have made up his mind earlier, and been man enough to tell the other of his decision - bu gapda “could have done” maslahat berganda ishlatilindi, gapda esa - qilsa bo‘lardi deb tarjima qilingan.

➤ Bu gapda shu so‘z birikmasi man enough to tell – aytish uchun yetarli odam deb tarjima qilinadi, lekin gapda ayta olmoq deb tarjima qilingan.

➤ And the staff, led by bad-tempered Director Alice - bu gapda bad-tempered so‘zi badxulqli deb tarjima qilingan

➤ He stepped down and helped the very old man with big suitcase to get on the bus - bu gapda with big suitcase so‘z birikmasi - katta sumkali deb tarjima qilingan.

## XULOSA

Alan tinch hayot kechiradi va Molotov deb atagan mushukni asrab oladi. Afsuski, Molotov tulki tomonidan o‘ldirilgandan so‘ng, Alan dinamit bilan tuzoq o‘rnatishga qarshilik ko‘rsatolmaydi, natijada katta portlash sodir bo‘ladi. Oxir – oqibat, hokimiyat Alanni Malmkoping qariyalar uyiga yuborishga qaror qildi. Kitob 100 yoshli Alan va uning o‘rtoqlari Indoneziyaga uchib ketishilari va u yerda Amanda va uning o‘g‘illari boshqaradigan hashamatli mehmonxonada vaqt o‘tkazishlari bilan yakunlanadi. Alanning atom bombasi bilan qiziqqan Indoneziya hukumati vakili unga murojaat qilganda, u yordam berishga rozi bo‘lib, u hayoti davomida uchrashgan boshqa rahbarlardan farqli o‘laroq, hech bo‘lmaganda Indoneziya prezidenti Yudxoyononing aqli raso ekanligini aytadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N. Erkaboyeva “Ona tili fanidan ma‘ruzalar to‘plami” Toshkent – 2020
2. Kamoljonovich, Solijonov Juraali. “J.K. ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. “*Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.1 (2022): 334-343
3. Solijonov J.K. Garri Potter va afsungarlar toshi. Termiz: Surxon-Nashr
4. Solijonov J.K. Final qualification work “English-Uzbek Translation Problems of The Novel “Harry Potter And The Sorcerer’s Stone” by J.K Rowling” Termez State University, Termez: 2016. – 86 p.
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/The\\_Hundred-Year-Old\\_Man\\_Who\\_Climbed\\_Out\\_the\\_Window\\_and\\_Disappeared](https://en.wikipedia.org/wiki/The_Hundred-Year_Old_Man_Who_Climbed_Out_the_Window_and_Disappeared)

6. [https://hero.fandom.com/wiki/Allan\\_Karlsson](https://hero.fandom.com/wiki/Allan_Karlsson)
7. <https://uz.erf-est.org/14937-antrop-nimo.html>
8. [https://en.wikipedia.org/wiki/Richard\\_Nixon](https://en.wikipedia.org/wiki/Richard_Nixon)
9. [https://en.wikipedia.org/wiki/Jonas\\_Jonasson](https://en.wikipedia.org/wiki/Jonas_Jonasson)
10. Solijonov Juraali Kamoljnovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39(No 4.), 221–229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
11. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
12. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). *Ta'limfidoyilari*, 18(5), 32-37.
13. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
14. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI" ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>